
QISHKI TA`TIL MAZMUNLI O'TMOQDA

Qishki ta'til kunlari o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yurtimizning diqqatga sazovor joylari, madaniyat maskanlari, muzey va teatrlarga xavfsizlikni ta'minlagan holda olib borilishiga, umumta'lim muassasalarida turli to'garaklar tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, ta'til kunlarining har bir kuni o'quvchi-yoshlar uchun qiziqarli, shu bilan birga, bilimni boyitish, sog'lomlashtirish, iste'dod va qobiliyatlarini mustahkamlashda foydali bo'lgan mashg'ulotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan o'tkaziladi. Jumladan, har bir kunga nom berilib, shu asosda tadbirlar tashkillashtirilmoqda.

Xususan, joriy yilning 5 va 6 yanvar kunlari Rishton tumanida joylashgan 49-umumta'lim maktabida ham sport to'garaklari tashkil etilib, ko'plab sportga qiziqishi baland yoshlarni o'z bag'riga chorladi. Ushbu maktabda 14-yanvar Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan voleybol bo'yicha sport musobaqasi o'tkazildi. Musobaqada 16 va 35 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar va o'smirlar ishtirok etishdi. Turnir yakunida g'olib jamoalar Yuqori Beshkapa MFY raisi Zafarjon Abdurahmonov va maktab ma'muriyatining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Shuningdek fan to'garaklari ham bolajonlar uchun ishlab kelmoqda. Bolajonlarning qiziqishi yuqori ekanligini ko'rgan ota-onalar tashkilotchilariga o'z minnatdorchiliklarini bildirishmoqda.

Rishton tumani hokimligi
axborot xizmati

2023-01-06 15:26:51